

NEMIS TILI DARSLARIDA TALABALARNING ASOSIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Q. Begmatov ¹

Annotatsiya:

Maqola "Nemis tili darslarida talabalarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirish" globalizatsiya davrida jamiyatdagi o'zgaruvchanlikka moslashishni talab qiluvchi shaxsiy xususiyatlar va asosiy kompetensiyalar haqida fikr yuritadi. Muallif, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan turli kompetensiyalar—jumladan ta'lim, kognitiv, kommunikativ, madaniy, semantik, axborot, ijtimoiy va mehnat hamda shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirish kompetensiyalarini batafsil tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: asosiy kompetensiyalar, antik kompetensiya, axborot kompetensiyasi, ijtimoiy va mehnat kompetensiyasi, o'z-o'zini takomillashtirish, pedagogik yondashuvlar

doi: <https://doi.org/10.2024/bgkcjn77>

Globalashuv davrida jamiyatda avval ixtiyoriy bo'lgan ba'zi shaxsiy xususiyatlarning roli ma'lum darajada oshdi, masalan, hozirgi o'zgaruvchan dunyoda tezda harakat qilish, yangi kasblar va bilim sohalarini egallash, turli kasb egalari bilan umumiy til topish qobiliyati, madaniyatlar va boshqalar. Ushbu fazilatlar "asosiy kompetensiyalar" deb nomlanadi. kompetensiyalarning maqsadi talabalarga ijtimoiy dunyoga moslashishga yordam berishdir. Kompetentlik – ta'lim orqali egallanadigan bilim, tajriba, mayllarga asoslangan umumiy qobiliyatdir.

Kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlari ijtimoiy va shaxsiy tajribaning tarkibiy namoyishi, shuningdek talabalarning asosiy faoliyatiga asoslangan quyidagi asosiy ta'lim kompetensiyalari mavjud:

- 1.ta'lim va kognitiv kompetensiya;
- 2.kommunikativ kompetensiya;
- 3.madaniy kompetensiya;
- 4.semantik kompetensiya;
- 5.axborot kompetensiya;
- 6.ijtimoiy va mehnat kompetensiyasi;
- 7.shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirish kompetensiyalari.

Endi ana shu kompetensiyalarni alohida ko'rib chiqaylik:

Semantik kompetensiya – bu talabaning qadriyat yo'nalishlari, uning atrofidagi dunyoni ko'rish va tushunish, unda harakat qilish, o'z roli va maqsadini anglash, o'z harakatlari va ishlari uchun maqsadli va semantik munosabatlarni tanlash qobiliyati bilan bog'liq kompetensiya. U axloqiy mavzudagi suhbatlar paytida, individual, juft, guruhli ish olib borish shaklida darslarda – munozaralarda harakatlarni tanlash holatlarida shakllanadi.

¹ Q.M. Begmatov, PhD, dots.v.v.b., SamDCHTI

Madaniy kompetensiya – bu talabanning nemis tilida soʻzlashadigan madaniyat makonida harakat qilish qobiliyatidir, u bilim komponentini oʻz ichiga oladi: dunyoning ilmiy manzarasi gʻoyasi, oʻrganilayotgan til mamlakatining asosiy ilmiy yutuqlari haqidagi bilim, Germaniyaning madaniy qadriyatlari gʻoyasi. U folklor ertaklarini dramalashtirish, sheʼrlar, qoʻshiqlarni oʻrganish, qofiyaga amal qilish orqali shakllanadi. Ushbu kompetensiya boshlangʻich kurslarda faol rivojlanadi.

Oʻquv va kognitiv kompetensiya – bu talabanning mustaqil bilim faoliyati sohasidagi kompetensiyalari, shu jumladan, mantiqiy, uslubiy, umumiy taʼlim faoliyati elementlari. Bunga maqsadlarni belgilash, rejalashtirish, tahlil qilish, aks ettirish va oʻz-oʻzini baholashni tashkil etish usullari kiradi.

Axborot kompetensiyasi guruhda internet resurslaridan foydalangan holda, nemis tilida kompyuter dasturlarini oʻrgatishda rivojlantiriladi.

Ijtimoiy va mehnat kompetensiyasi kommunikativ kompetensiya bilan chambarchas bogʻliq. U ushbu mahoratni fuqarolik-ijtimoiy va ijtimoiy-mehnat faoliyati sohasiga yoʻnaltiradi: ularning ijtimoiy rollarini boshqaradigan, ijtimoiy faoliyat va funksional savodxonlik koʻnikmalarini oʻzlashtiradigan dialog oʻtkazish qobiliyati.

Shaxsiy oʻzini oʻzi takomillashtirish kompetensiyasi jismoniy, maʼnaviy va intellektual oʻzini oʻzi rivojlantirish, hissiy oʻzini oʻzi boshqarish va oʻzini oʻzi qoʻllab-quvvatlash usullarini oʻzlashtirishga qaratiladi.

Taʼkidlash kerakki, oliy taʼlim muassasasi yuqori kurslarida chet tillarini oʻqitishdan asosiy maqsad talabalar tomonidan chet tili kommunikativ kompetentligiga erishishdir. Chet tilini muvaffaqiyatli oʻzlashtirish uchun talabalar nafaqat til shakllarini bilishlari, balki ularni haqiqiy muloqotda qanday ishlatish haqida tasavvurga ega boʻlishlari kerak. Shunday qilib, chet tilini oʻqitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ana shularni eʼtiborga olib, kommunikativ kompetensiyaga ega boʻlgan talaba:

- oʻz bilimini ogʻzaki va yozma ravishda taqdim eta olish, anketa, ariza, rezyume, xat, tabrik yozish mahorati;
- madaniyatlararo muloqot sharoitida guruhni, oliy taʼlim muassasasini, mamlakatni tasvirlay olish qobiliyati;
- atrofdagi va boshqa insonlar va voqealar bilan oʻzaro munosabatlarini tasvirlay olish; savol bera olish, tarbiyaviy muloqotni toʻgʻri olib borish malakasi;
- nutq faoliyatining turli xil turlari (monolog, dialog, oʻqish, yozish), lingvistik kompetensiyalarga ega boʻlish;
- guruhda birgalikda ishlash usullarini, muloqot orqali egallash; bir birlari bilan kelishib keta olish yoʻllarini qidirish va topa olish;
- koʻp madaniyatli, koʻp millatli jamiyatda ijobiy muloqot qobiliyatiga ega boʻlish.

Xorijiy tillarni oʻrganish boʻyicha asosiy umumiy taʼlim standarti, chet tilini oʻrganishda sifat jihatidan yangi maqsadlarga erishish uchun vazifalarni belgilaydi, yaʼni chet tilining kommunikativ kompetensiyasini uning tarkibiy qismlari:

- nutq, til, ijtimoiy-madaniy, kompensatsion, oʻquv va kognitiv kompetensiyalar orqali rivojlantiradi;
- nutq kompetensiyasi – nutq faoliyatining toʻrtta asosiy turida (gapirish, tinglash, oʻqish, yozish) kommunikativ koʻnikmalarni rivojlantirish;

- til malakasi – talabalar uchun tanlangan mavzular, sohalar va muloqot holatlariga muvofiq, yangi til vositalarini (fonetik, imlo, leksik, grammatik) o'zlashtirish; o'rganilayotgan tilning lingvistik hodisalari, ona tilida va o'rganilayotgan tilda fikrlarini ifodalashning turli usullari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish;

-ijtimoiy-madaniy kompetensiya – talabalarga turli bosqichlarida tajriba, qiziqish, psixologik xususiyatlarga javob beradigan mavzular, sohalar va muloqot vaziyatlari doirasida o'rganilayotgan chet tili mamlakatlari / ularning madaniyati, an'analari va voqeliklarini tanishtirish.

-kompensatsion kompetensiya – axborotni qabul qilish va uzatishda til vositalarining yetishmasligi sharoitida vaziyatdan chiqish qobiliyatini rivojlantirish;

-ta'lim va kognitiv kompetensiya – umumiy va maxsus o'quv ko'nikmalarini yanada rivojlantirish; tillar va madaniyatlarni o'rganish, shu jumladan, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun talabalarni mavjud bo'lgan usul va metodlar bilan tanishtirish.

Shunday qilib, kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda (xususan, monolog va dialogni o'rgatishda) o'yin texnologiyalariga ham asosiy o'rin beriladi. Har qanday rolga "ko'nikish", talabaga dam olish va nemis tilida gapirishni boshlash osonroq kechadi. Demak, yuqorida ta'kidlab o'tilgan kompetensiyalarni shakllantirish xorijiy tillarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Белицкая Г.Э. Социальная компетентность личности. Сознание личности в кризисном обществе / под ред. А.А. Абульхановой-Славской, А.В. Брушлинского. – М.: Изд-во «Педагогика», 1995. – С. 42-57.
- [2]. Белкин А.С. Компетентность. Профессионализм. Мастерство, –Челябинск: ОАО «Южно- Уральское кн. изд-во», 2004. –176 с.
- [3]. Дубровина Т.С. К вопросу о профессиональной компетентности будущих учителей иностранных языков // Молодой ученый. 2011. №4. Т. 2. С. 86–89.
- [4]. Жалолов Ж.Ж. Чет тилни ўқитиш методикаси. –Т.: 2012. – 431 б.
- [5]. Зияева С.А Социолингвистическая компетенция как один из компонентов коммуникативной компетенции // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. LXI междунар.науч.-практ.конф. –№ 6(61). – Новосибирск, 2016. – С.92-96.
- [6]. Ломакина О.Е. Формирование профессиональной компетентности будущего учителя иностранных языков : дис. ... канд. пед. наук. Волгоград, 1998. - 22 с.